



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2021/6



MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 **АХМЕДШАЕВА МАВЛЮДА АХАТОВНА**
Некоторые теоретико-правовые вопросы
рецепции публичного права в
национальную правовую систему
- 12 **YOUNAS AMMAR**
SADIKOV MAKSUDBOY
ABDULAJONOVICH
Tech law in central asia: approach to technological
progress of the 4th industrial revolution
- 17 **UMAROV BEKZOD AZAMATOVICH**
Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish
konsepsiyasida prinsiplarning tutgan o'рни
- 24 **МУКУМОВ БОБУР МЕЛИБОЙ УГЛИ**
Проблемы нормативного регулирования
предпринимательской деятельности
в Республике Узбекистан

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ.
MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 32 **HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**
Hukumat faoliyatini pandemiya sharoitida
tashkil qilish va huquqiy tartibga solish
masalalariga oid mulohazalar
- 39 **MUHAMMADIYEV ULUG'BEK ISLOMOVICH**
XAYITOV XUSHVAQT SAPARBAYEVICH
Qonun ustuvorligini ta'minlashda zamonaviy
mexanizmlarning yaratilishi

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA
HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 47 **IMOMOV NURILLO FAYZULLAYEVICH**
O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining
yangi tahriri loyihasida "fuqarolik qonunchiligi"ga
oid yangiliklarning ilmiy-nazariy tahlili
- 57 **SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH**
Mas'uliyati cheklangan jamiyati ishtirokchilarining
umumiy yig'ilishini chaqirish va bu toifadagi
nizolarni hal qilishning ayrim masalalari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI.
AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.
PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI
MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI
TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

- 66 **YAKUBOVA IRODA BAHRAMOVNA**
O'zbekistonda mualliflik huquqi bo'yicha
mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruv
tashkilotlarining vujudga kelishi va rivojlanishi
- 74 **QUTLIMURATOV FARXAD QALBAYEVICH**
Qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs
kreditorlarining huquqlarini himoya qilish
mexanizmlarining umumiy tavsifi
- 81 **BAKHRAMOVA MOKHINUR
BAKHRAMOVNA**
Absence of jurisdiction and consequences
in arbitral proceedings
- 88 **IBROHIMOV AZIMJON ABDUMO'MIN O'G'LI**
Korporativ niqoblarni olib tashlash
konsepsiyasi va uni O'zbekiston korporativ
huquqida takomillashtirish masalalari
- 96 **ФАЙЗИЕВ ШУХРАТ ХАСАНОВИЧ**
Правовые основы экологической политики
государства: система, классификация и
проблемы кодификации законодательства
- 107 **MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH**
O'simlik dunyosini muhofaza qilishda
jamoatchilik nazoratini huquqiy ta'minlash
masalalari
- 114 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAEVICH**
The role of social partnership in setting
standards for the protection of the natural
environment (legal aspect)
- 124 **MAMAYEVA MAKBAL NURJANOVNA**
Организационные аспекты обеспечения
независимости института адвокатуры
в Узбекистане: проблемные аспекты
- 131 **URALOV SARBON SARDOROVICH**
Sud qarorlarining preyditsial ahamiyati
- 137 **MALLAYEV NORMAMAT RAMAZANOVICH
ERGASHEV BAHODIR ABDURASULOVICH**
Advokatlik faoliyatini tashkil etishning
nazariy-huquqiy asoslari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 143 **XUDAYKULOV FERUZBEK XURRAMOVICH**
Ekologiya sohasidagi jinoyatlar obyektiv belgilari
va o'ziga xos xususiyatlari: tahlil va taklif
- 153 **SALOXOVA SARVINOZ SADRIDDIN QIZI**
Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab
chiqqan voyaga yetmaganlarning post-
penitensiar adaptatsiyasini ta'minlashni
takomillashtirish
- 162 **MAMAJANOV ABORBEK
MIRABDULLAYEVICH**
Ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunlarida
o'zboshimchalik uchun javobgarlik
- 170 **ANORBOYEV MURODJON
RAXMANQUL O'G'LI**
Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga
aralashish jinoyatining umumiy tavsifi

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV
HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 176 **БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА**
Соглашение о признании вины как
гарантия обеспечения прав личности
в уголовном процессе
- 184 **PRIMOV BAXTIYOR OLIM O'G'LI**
Dastlabki tergovda qo'llanilayotgan axborot-
kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasi
va umumiy tavsifi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 192 **EGAMBERDIYEV DILSHOD ALISHEROVICH**
Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish
vositasi sifatida xalqaro tergov komissiyalari
ahamiyati va tushunchasi
- 200 **КОЗАКОВ БЕКЗОД АБДУЛБОКИЕВИЧ**
Принцип добрососедства между
государствами в современном междуна-
родном праве
- 209 **SUVANOV SARDOR BAXADIROVICH**
Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida
inson huquqlariga oid ayrim masalalar

UDC: 342.5(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-3400-9439

DAVLAT BOSHQARUVINI NOMARKAZLASHTIRISH KONSEPSIYASIDA PRINSIPLARNING TUTGAN O'RNI

Umarov Bekzod Azamatovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
"Biznes huquqi" kafedrası katta o'qituvchisi,
e-mail: b.a.umarov@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi kunda davlat boshqaruvini modernizatsiyalashda nomarkazlashtirishning tutgan o'rni, nomarkazlashtirish tushunchasining mohiyatini anglash yuzasidan turli yondashuvlar, nomarkazlashtirishda davlat boshqaruvi prinsipi, davlatning boshqaruvga ta'sir etish usuli, boshqaruv rejimi, davlat hokimiyati va davlat boshqaruvini tashkil etish shakli, shuningdek, ma'lum miqdordagi hokimiyat vakolatlarini boshqaruv ta'sir kompetensiyasiga ega subyektlar tomonidan zarur huquqlarga, vakolatlariga va resurslarga ega bo'lgan subyektlarga o'tkazish huquqiy mexanizmlari, nomarkazlashtirish siyosatini samarali amalga oshirishda prinsiplar (tamal qoidalar)ning ahamiyati, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarda nomarkazlashtirish prinsiplarining qo'llanilish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, davlat boshqaruv funksiyalarini qayta taqsimlashda davlat, hududiy (regional) va mahalliy darajadagi manfaatlarini muvozanatlashtirgan holda, aholi umummanfaatlaridan kelib chiqib, eng maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratishga xizmat qiluvchi nomarkazlashtirilgan davlat boshqaruvining prinsipi sifatida davlat boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish va faoliyat yuritish uchun bosh g'oya sifatida ko'p darajali tizimlashtirilgan boshqaruvchi subyektlarning majmuasi sifatidagi ahamiyati o'rganilgan. Maqolada nomarkazlashtirish institutining qo'llanilishi mahalliy ma'muriy-hududiy birliklar darajasida o'zini o'zi boshqarish prinsiplarini joriy etish imkoniyatini ham shakllantirayotgani yoritilgan.

Kalitso'zlar: nomarkazlashtirish, davlat boshqaruvini modernizatsiyalash, fuqarolik jamiyati, nomarkazlashtirish prinsiplari, ma'muriy islohotlar, davlat boshqaruv rejimi, subsidiyarlik prinsipi, dekonstratsiya.

РОЛЬ ПРИНЦИПОВ В КОНЦЕПЦИИ ДЕЦЕНТРАЛИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Умаров Бекзод Азаматович,
старший преподаватель кафедры "Бизнес-право"
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются различные подходы к пониманию роли децентрализации в модернизации государственного управления, сущность концепции децентрализации, принцип децентрализации государственного управления, методы влияния на управление государством, способ управления, форма организации государственной власти и государственного управления, а также передача определенного объема властных полномочий. Анализируется важность принципов (Основных правил) в эффективной реализации политики децентрализации, применение принципов децентрализации в проводимых государством реформах. Также подчеркнута роль конечной цели от перераспределения функций государственного управления как принципа децентрализованного государственного управления, который служит созданию возможности принимать наиболее оптимальные управленческие решения, основанные на общих интересах населения, сбалансировании интересов на государственном, региональном (областном) и местном уровнях, формировании системы управления, основанной на принципах децентрализации государственного управления. В статье рассматривается возможность самоуправления на уровне местных административно-территориальных единиц, а также формирование института децентрализации.

Ключевые слова: децентрализация, модернизация государственного управления, гражданское общество, децентрализация печати, административная реформа, режим государственного управления, субсидирование печати, деконцентрация.

THE ROLE OF PRINCIPLES IN THE CONCEPT OF DECENTRALIZATION OF PUBLIC ADMINISTRATION

Bekzod Umarov Azamatovich,

Senior Lecturer Department of Business Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. *This article analyzes the role of decentralization in the modernization of public administration, the essence of the concept of decentralization of public administration, the principles of decentralization of public administration, methods of influencing public administration, the method of management, the form of organization of public administration, as well as the transfer of a certain amount of authority, the principle of decentralization of public administration. In addition, the ultimate goal of the redistribution of public administration functions is important as the principle of decentralized public administration, which serves to create the opportunity to make optimal management decisions based on the common interests of the population, the balance of interests at the state, regional (regional) and local levels. The article considers the possibility of self-government at the level of local administrative-territorial units, as well as the formation of the institution of decentralization.*

Keywords: *decentralization, modernization of public administration, civil society, decentralization of the press, administrative reform, public administration regime, subsidization of the press, deconcentration.*

Zamonaviy davlat murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida uning mohiyatini anglash yuzasidan huquqiy, siyosiy (boshqaruv), iqtisodiy, tarixiy nuqtayi nazardan yondashiladi. Davlat boshqaruvining yaqin tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asrgacha markazlashgan davlat boshqaruviga asoslangan davlat qurilishi g'oyalari ustuvor ekanligini ko'rishimiz mumkin [1]. Bunga yaqqol misol sifatida Napoleonning davlat boshqaruvi qurilishini oladigan bo'lsak, ushbu davrda Fransiya boshqa Yevropa davlatlari uchun zamonaviy davlat xususiyatlarini jamlagan hokimiyat institutlarini ifoda etuvchi namuna sifatida xizmat qildi, chunki unda davlat rahbari hamda parlamentning irodasini amalga oshirish huquqiy mexanizmlari samarali yo'lga qo'yilgan edi. Fransiyaning qat'iy iyerarxik boshqaruv shaklida tenglik mintaqaviy va mahalliy farqlarni muvozanatlash, shuningdek, markazlashgan davlat boshqaruvi ushbu davrda strategik ahamiyatga molik milliy loyihalarni amalga oshirilishini ta'minladi.

Hozirgi zamonda davlatni turli yondashuvlar yordamida o'rganish davlatning o'zini hamda u bilan bog'liq holda vujudga keladigan muammolarga tor va bir tomonlama qarashdan chekina boshladi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida ko'plab demokratik-huquqiy davlatlar uchun bunday muammolardan biri sifatida ommaviy boshqaruv funksiyalari va vakolatlarini qayta (muvozanatlangan holda) taqsimlash hamda nomarkazlashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Bayon etilgan tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, davlat (ommaviy) boshqaruvni nomarkazlashtirish kompleks va murakkab jarayondir. Umuman olganda aytish mumkinki, huquqiy demokratik davlatlarda davlat boshqaruvi nomarkazlashtirish ommaviy boshqaruv kompetensiyasi mavjud subyektlarning muayyan miqdordagi hokimiyatini ularning tasarrufidan chiqargan holda zarur huquq, majburiyat va resurslarga ega bo'lgan quyi tuzilmalarga o'tkazilishdan iboratdir. Boshqaruv funksiyalarini bunday qayta taqsimlashdan pirovard maqsad davlat, hududiy (regional) va mahalliy darajadagi manfaatlarni muvozanatlagan holda, aholi umummanfaatlaridan kelib chiqib eng maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini vujudga kelishidir [2].

Zero, aksariyat demokratik davlatlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari kundalik eng muhim davlat (asosan ijtimoiy-iqtisodiy) masalalarini bevosita hal qiladi. Bu esa fuqarolarning boshqaruv jarayonlaridagi manfaatlarining nisbatan yuqori bo'lishiga va fuqarolarning mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida faol ishtirok etishiga olib keladi. Bundan tashqari, fuqarolarning mahalla, qishloq va tuman miqyosidagi ishlarni boshqarishdagi bevosita ishtiroki butun davlat bo'ylab markazlashgan (eng muhim ahamiyatga molik) davlat boshqaruvi ishlarini boshqarish uchun zarur bo'lgan yuksak professionallik (kompetensiya) va siyosiy mas'uliyatni talab qilmaydi.

Shu bilan birga, davlat boshqaruvida nomarkazlashtirish va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida gap borar ekan, albatta, bu hodisa yo ijobiy, yo salbiy xususiyatlarga ega, degan bir tomonlama fikrni bildirish unchalik maqsadga muvofiq emas. Chunki, bu borada muvaffaqiyatga erishish va davlat boshqaruvini takomillashtirish uchun bir qancha chora-tadbirlar ko'rinishi lozim bo'lib, bu eng avvalo ushbu yo'nalishda muhim huquqiy mexanizmlar joriy qilinishi va ular, o'z navbatida, markaziy hokimiyat va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro vakolatlarining to'g'ri va muvozanatlashtirilgan taqsimotini ta'minlashi darkor. Aks holda nomarkazlashtirish o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erisha olmaydi va davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlarning sifat va sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, davlat (ommaviy) boshqaruvni tashkil etishga oid munosabatlarda nomarkazlashtirish tushunchasi *turli mazmunga ega ekanligini*, ya'ni uning quyidagi jihatlari namoyon bo'lishini ko'rish mumkin:

- davlat (ommaviy) boshqaruvi prinsipi sifatida;
- davlat (ommaviy) boshqaruv ta'sirining usuli (metodi) sifatida;
- davlat boshqaruv rejimi sifatida;
- davlat hokimiyati va davlat boshqaruvini tashkil etish shakli sifatida;
- vakolatlarni yuqoridan quyiga o'tkazish (berish) va amalga oshirish jarayoni sifatida;
- davlat (ommaviy) boshqaruvi tashkiliy tuzilmasining elementi sifatida [3].

Bundan tashqari, davlat boshqaruviga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, nomarkazlashtirish nafaqat juda keng ko'lamli, ko'p funktsiyali ta'rifga ega, balki bu tushunchalarning har birida o'z turlari, darajalari va amalga oshirish shakllariga ega bo'lgan murakkab hodisa ekanligiga amin bo'lamiz [4]. Shu tufayli ham nomarkazlashtirish bo'yicha yetarlicha to'liq va obyektiv tushunchaga ega bo'lish uchun, uning qo'llanilish doirasini har tomonlama o'rganib, muhim xususiyatlarini alohida ajratib chiqish lozim.

Mazkur institutning qo'llanilishi mahalliy ma'muriy-hududiy birliklar darajasida o'zini o'zi boshqarish prinsiplarini joriy etish imkoniyatini oqlaydi. Yuqoridagilarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, davlat boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirish instituti dolzarb bo'lib, uni

ilmiy nuqtayi nazardan sinchkovlik bilan o'rganishni talab etadi.

Tadqiqotlarda nomarkazlashtirishni davlat boshqaruvining prinsipi, davlatning boshqaruv ta'sir etish usuli, boshqaruv rejimi, davlat hokimiyati va davlat boshqaruvini tashkil etish shakli, shuningdek, ma'lum miqdordagi hokimiyat vakolatlarini boshqaruv ta'sir kompetensiyasiga ega subyektlar tomonidan zarur huquqlarga, vakolatlarga va resurslarga ega bo'lgan subyektlarga o'tkazish jarayoni sifatida ham talqin etiladi [5].

Nomarkazlashtirish davlat (ommaviy) boshqaruvining prinsipi sifatida davlat boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish va faoliyat yuritish uchun bosh g'oya sifatida belgilanib, unda ko'p darajali tizimlashtirilgan boshqaruvchi subyektlarning majmuasi mustaqil va o'z mas'uliyati ostida yuklatilgan funktsiyalarni amalga oshirishi bilan ifodalanadi.

Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish prinsipining chuqur nazariy asoslari shakllanganini hamda qonunchilikda bevosita mustahkamlanib amalda davlat boshqaruvini tashkil etishda va amalga oshirishda keng qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin.

Ta'kidlash lozimki, nomarkazlashtirish har qanday boshqaruv tizimiga xos bo'lgan prinsip bo'lib, uni samarali boshqaruv munosabatlariining shakllantirilishidagi obyektiv qonuniyat sifatida ham baholash mumkin. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari, madaniy meros, ilmiy an'ana (doktrina)lar, umuman olganda, davlat va jamiyat taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko'rib chiqilayotgan prinsipni terminologik jihatdan turli xil tushunchalar yordamida ifodalanishini ham ilmiy manbalarda, ham normativ hujjatlarda ko'rish mumkin. Xususan, "vakolat va faoliyat doirasining chegaralanishi", "hokimiyatning taqsimlanishi" "suverenitet", "avtonomlik" (muhtoriyat), "hududiy yoki idoraviy mustaqillik" va boshqalar [6].

Jumladan, AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan X o'zgartirishda boshqaruv funksiyalarini nomarkazlashtirish prinsipi quyidagicha belgilaydi: "ushbu Konstitutsiya bilan Birlashgan shtatlarga berilgan (delegiyalanmagan) va alohida shtatlar uchun taqiqlanmagan vakolatlar, ushbu shtatlar uchun yoki bevosita fuqarolarga taalluqlidir" [7].

Italiya Respublikasi Konstitutsiyasida nomarkazlashtirish prinsipi hududiy va funksional-kompetentlik darajalarida ham o'zining bevosita ifodasini topgan:

1) Respublika regionlarga (o'z huquqlari, funksiyalari va organlariga ega avtonomiyalar), provinsiyalar va kommunalar (qonunlar bilan belgilangan hamda prinsiplar doirasida shakllangan avtonom subyektlar)ga bo'linadi (Konstitutsiyaning 114, 115, 116-moddalari);

2) provinsiyalar hududi keyinchalik (bosqichma-bosqich) nomarkazlashtirilishini nazarda tutgan holda alohida ma'muriy funksiyalarga ega okruglarga bo'linishi mumkin (Konstitutsiyaning 129-moddasi);

3) Respublika qonunida belgilangan tartibda tashkil etilgan hududiy organlar ham provinsiyalar, kommunalar va boshqa mahalliy subyektlar hujjatlarining qonuniyligi ustidan nomarkazlashgan shaklda nazoratni amalga oshiradi (Konstitutsiyaning 130-moddasi) [8].

Mamlakatimiz Konstitutsiyasini ham tahlil etadigan bo'lsak, ommaviy boshqaruvning tashkil etilishi va faoliyat yuritish asoslari nomarkazlashtirish prinsipiga asosan shakllantirilganligini ko'ramiz:

1) O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi (Konstitutsiyamizning 11-moddasi).

2) O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi (Konstitutsiyamizning 32-moddasi).

3) Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular raisni (oqsoqolni) saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

Milliy tadqiqotlarimizda davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirishda ushbu prinsip-

ning tutgan o'rni va ahamiyatining deyarli tahlil etilmaganligini qayd etish joiz. Ammo, ayrim tadqiqotlarda ushbu prinsipni davlat boshqaruvini amalga oshirishda demokratizm tamoyilining, o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yoritishda muayyan jihatlari yoritilganligini ko'rish mumkin. Ko'plab tadqiqotlarda nomarkazlashtirish prinsipini faqat markazlashtirish prinsipi bilan uzviy bog'liqlikda tahlil etilganligini qayd etish lozim (qisqacha adabiyotlar tahlilini kiritish lozim) [9].

Zero, hozirda nomarkazlashtirish prinsipi demokratik-huquqiy boshqaruv tizimiga asoslangan har qanday davlat uchun obyektiv zarurat ekanligini, ya'ni faqat qat'iy markazlashgan boshqaruvga asoslangan tizimlar yordamida samarali boshqaruvni amalga oshirish imkoni mavjud emasligini, o'zlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshira olmasligi xususan, *pandemiya (COVID-19 virusining tarqalishi) sharoitida* ham yaqqol o'z ifodasini topdi [10]. Davlatning mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari ham faqat ushbu prinsipdan foydalanish darajasiga yoki aniqrog'i, nomarkazlashtirishning biror-bir shakllaridan (dekonsentratsiya delegiyalash yoki "hokimiyatni o'tkazish") ustuvor foydalanishiga bog'liqdir.

Davlat boshqaruvini samarali tashkil etishda, nomarkazlashtirish munosabatlarining umuman siyosiy-huquqiy hodisa sifatidagi mohiyatini to'g'ri va chuqur anglash bevosita uning tamoyillari tizimini tahlil qilish bilan bog'liqdir. "*Prinsip*" atamasi (lot. *principium* – boshlang'ich asos, negiz, ibtido) – biror nazariya, ta'limot, dunyoqarashning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi, faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida ma'nolarini anglatadi [11]. Prinsip umumilmiy kategoriya sifatida:

- har qanday nazariya, ta'limot, fan va dunyoqarashlarning asosiy boshlang'ich qoidasi;

- insonning voqelikka ichki munosabatini xulq-atvor va faoliyat me'yorlari orqali ifodalovchi ishonchi.

Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish prinsiplari tizimini ko'rib chiqish zarurati N.A. Bogdanovanning fikriga ko'ra, prinsiplar har qanday nazariyaning boshlang'ichi, o'rganilayotgan konstitutsiyaviy-huquqiy hodisa yoki jarayon haqida bilimlarni oshirish va chuqurlashtirishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi [12]. Davlat tasarrufi

tamoyillaridan D.A. Kovachevning fikriga ko'ra, nomarkazlashtirish prinsiplari bevosita konstitutsiyaviy prinsiplarning turlaridan biri bo'lib "obyektiv mavjud siyosiy va kibernetik qonuniyatlar, shuningdek, huquqiy materiyaning o'zini ifodalaydi"[13]. Prinsiplar nomarkazlashtirish jarayonida ichki ziddiyatlarni bartaraf etish va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvini samarali amalga oshirish hamda ommaviy boshqaruv tizimini optimallashtirish jarayonlarida markazlashtirish va nomarkazlashtirish tamoyillarining qo'llanilishini muvozanatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan birinchisida markaziy hukumat nafaqat davlat hayotining bosh (umumiy) yo'nalishlarini tartibga solishga, balki mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini boshqarishga hamda mahalliy ahamiyatga ega ko'plab masalalarni hal etishdagi irodani bevosita o'z ta'siriga bo'ysindirishga intiladigan davlat tuzilishi tizimi tushuniladi [14]. Nomarkazlashtirish prinsipida esa vakolatli davlat boshqaruv subyektlari tomonidan zarur huquq, majburiyatlar va resurslarga ega bo'lgan boshqa subyektlarga ma'lum miqdordagi hokimiyat vakolatlari topshiriladi. Bunday boshqaruv funksiyalarini qayta taqsimlanishining yakuniy maqsadi davlat, mintaqaviy va mahalliy darajada, shuningdek, hayotning barcha sohalarida eng maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratish hisoblanadi.

Alohida ta'kidlash kerakki, markaziy davlat hokimiyati organlari vakolatlarining mahalliy davlat hokimiyati organlariga o'tkazilishi jarayonlari ham muayyan prinsiplar asosida amalga oshirilishni talab etadi. Yuqoridagi fikrlarga asosan ilmiy adabiyotlarda ta'kidlangan nomarkazlashtirish prinsiplarining mazmun-mohiyatini va xususiyatlarini ko'rib chiqsak.

Davlat boshqaruvining nomarkazlashtirish prinsiplari tizimida *subsidiarlik prinsipi* asosiy (bosh) prinsip sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu prinsipga ko'ra, markaziy davlat organlari vakolatlari maksimal darajada samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun fuqarolarga eng yaqin ommaviy boshqaruv institutlariga o'tkazilishini talab etadi. Shu bilan birga, markaziy davlat organlari faqat mahalliy ommaviy boshqaruv institutlari amalga oshira olmaydigan vakolatlarni, shuningdek, mahalliy darajada hal qilinishi mumkin bo'lgan masalalarni markaziy davlat organla-

riga o'tkazmaslik huquqini saqlab qolishi kerak.

Tadqiqotlarda subsidiarlik prinsipida "kichik siyosiy yoki ma'muriy birliklar"ga o'tkazilgan har qanday vakolatlarni o'z kuchlariga tayangan holda o'zidan ustun turuvchi subyektlar darajasida yoki ulardan ham samarali darajada bajara olishi ko'nikmasi bo'lishi zaruriyatini ko'rsatishadi [15]. Shuni ham qayd etish zarurki, ushbu prinsip davlat hokimiyati organlari o'rtasida huquq va majburiyatlarining aniq chegarasini belgilashga xizmat qiladi.

Ushbu prinsipning mazmun-mohiyatini xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham o'rnatilganligini ko'rishimiz mumkin, xususan, 1992-yil 7-fevralda Yevropa Ittifoqining shakllanishiga asos bo'lgan *Maastricht shartnomasida* ham ushbu prinsipning mazmuni juda aniq keltirilgan, shartnomaning 3-b moddasida quyidagicha fikr keltirilgan: "hamjamiyat (Evropa hamjamiyati) mutloq vakolatga ega bo'lmagan sohalarida hamda belgilangan vazifalar a'zo davlatlar tomonidan belgilangan masalalarning ko'لامي natijasida maqsadga erisha olishi kutilmasa hamjamiyat *subsidiarlik prinsipi* asosida harakat qiladi [16]."

Ushbu prinsip Yevropa Ittifoqi doirasidagi davlatlararo munosabatlarda genetik jihatdan bog'liq bo'lgan hokimiyat tarmoqlari tomonidan konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan birdaniga qabul qilinmadi [17]. Unda hokimiyat tarmog'idan birining vakolatlari belgilangan vazifani samarali amalga oshirishga yetarli darajada bo'lmasa, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiq bo'lmasa, boshqa hokimiyat tarmoqlari ko'maklashishi mumkinligini nazarda tutishini qayd etishimiz joiz [18].

Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirishning yana bir muhim prinsipi *zarur resurslar bilan yetarli darajada ta'minlanganlik* prinsipidir. Ushbu prinsip, markaziy hokimiyat subyektlaridan quyi bo'g'indagi subyektlarga o'tkazilgan vakolatlarni amalga oshirish samaradorligi zarur resurslar bilan tashkiliy-huquqiy ta'minlanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Ya'ni, mahalliy yurisdiksiyalari soliqlar va boshqa turli daromadlar manbalari shakllanuvchi moliyaviy resurslar hisobiga unga berilgan vazifalarni adolatli hamda samarali amalga oshirish qobiliyati bo'lishini talab etadi. Shuni inobatga olish zarurki, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish samarali amalga oshirilishi uchun *asimetrik ravishda* vakolatlar mahalliy boshqaruv subyektlarining funksional majburiyatlarini mahalliy xususiyatlar, talablar, iqtisodiy,

demografik, geografik va boshqa shart-sharoit (hudud, aholi, topografiya, shahar va qishloq joylari o'rtasidagi masofa, kichik shaharlar va megapolislarning mavjudligi, tekisliklar va tog'li hududlar, qishloq xo'jaligi va va boshqa jihat)larni inobatga olishni taqozo etadi [19].

Mintaqaviy va mahalliy hokimiyatlarning xilma-xilligini (o'ziga xos jihatlarini) hisobga olgan holda so'nggi o'n yilliklardagi tendensiyaga ko'ra asosiy mahalliy imkoniyat, sharoit, ehtiyoj hamda mahalliy afzalliklarni inobatga olgan holda ularning majburiyatlariga muayyan darajada moslashtirish jarayoni kechayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Davlat boshqaruvining markaziy organlari mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazilgan vakolatlarni to'g'ri amalga oshirilayotganligini nazorat qilish huquqini ta'minlaydigan *nazorat prinsipi* ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu prinsipni ko'plab mamlakatlarda nomarkazlashtirishning *dekonsentratsiya* shaklida davlat boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirish jarayonida markaziy boshqaruv organlari tomonidan ma'muriy nazorat bilan ham birga olib boriladi [20]. Shunday qilib, unitar tuzilish shaklidagi ko'plab respublikalarning konstitutsiyalarida ma'muriy-hududiy subyektlarda hukumat a'zolarining har birini ifodalovchi davlat vakiliga milliy manfaatlarini himoya etish, ma'muriy nazorat va qonunlarga rioya qilishni ta'minlash vakolatlarining yuklatilishi belgilangan.

Nomarkazlashtirish ko'proq mahalliy hamjamiyatni jamoat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishda, ma'muriy tizimlar samaradorligini oshirish va kelgusi inson taraqqiyotining natijasi sifatida va bevosita jalb etuvchi dastak sifatida ko'rib chiqilmoqda. Rivojlanayotgan davlat sharoitida va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida nomarkazlashtirishning jamoat turmush sharoitiga ta'siri bir xilda emas. U butun bir jismoniy, demografik omillar (hudud maydoni, aholi soni va uning etnik tarkibi, urbanizatsiya darajasi) va institutsional asoslarning mavjudligiga bog'liq.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda nomarkazlashtirish ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida davlat bosh-

qaruv organlarining funksiyalarini qayta ko'rib chiqish va kamaytirish, davlat organlari va xo'jalik boshqaruv organlari orasidagi vakolatlarni chegaralash, boshqaruv apparati sonini qisqartirish doirasida amalga oshirilmogda. Shu sababli davlat boshqaruv samaradorligini oshirish vazifalari davlat funksiyalarini yanada aniqlashtirishni, shuningdek, har bir aniq funksiya uchun aniq muassasa yoki uning funksional bo'linmasi, aniq masalani yechishga alohida davlat xizmatchisi javobgarlikni oladigan shunday tizimni yaratishni talab qiladi.

Nomarkazlashtirish ko'proq mahalliy hamjamiyat strategiyalarini ishlab chiqishda, nomarkazlashtirishni qaysi tarmoqlarda, sohalarda qo'llash bo'yicha chora-tadbirlarini belgilashda, albatta, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining yetuk bilimlari, malakali, zamon talablariga javob beradigan professional kadrlari asosiy mezon hisoblanadi.

Har bir mamlakat jamiyat hayotining barcha sohalaridagi munosabatlar barqarorligini ta'minlashda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim omillardan biri kadrlar bo'lib, aynan yuksak malakali va boy tajribaga ega kadrlar islohotlarini amalga oshirish va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash ham davlat boshqaruvida nomarkazlashtirishni amalga oshiruvchi asosiy kuch sanaladi.

O'zbekistonda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan ma'muriy islohotlarning ajralmas muhim qismi hisoblangan nomarkazlashtirish jarayonlari ham quyidagi *asosiy prinsiplarni* ko'zda tutgan holda o'tkazilishi maqsadga muvofiq:

- funksiyalarni yuqoridan pastga berishda izchillik va bosqichlilik;
- nomarkazlashtirish bosqichlarining bir-biri bilan bog'liqligini ta'minlash;
- har bir bosqichda o'tkazilayotgan chora-tadbirlarning kompleksligi, o'zaro va yagona strategiya va maqsad bilan bog'liq islohotlarning tegishli tadbirlar kompleksi bilan birga o'tkazilishi;
- nomarkazlashtirish jarayonlariga fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruv organlari va aholining yanada keng qatlamlarini jalb etilishi.

REFERENCES

1. Lessman C. and Markwardt, G. (2010). One size fits all? Decentralization, corruption, and the monitoring of bureaucrats. *World Development*, 38(4), pp. 631–646.
2. Maxina S.N. Administrativnaya detsentralizatsiya v Rossiyskoy Federatsii. Voronej, 2005, pp. 6–46.
3. Maxina S.N. Administrativnaya detsentralizatsiya v Rossiyskoy Federatsii. Voronej, 2005, pp. 6–46.
4. Jean-Paul Faguet. Decentralization and Governance. *World Development Volume 53*, January 2014, pp. 2–13
5. Maxina S.N. Administrativnaya detsentralizatsiya v Rossiyskoy Federatsii. Voronej, 2005, pp. 6–46.
6. Watt P.A. (2006). Principles and theories of local government. *Economic Affairs (Journal of the Institute of Economic Affairs)*, March, 2006, pp. 4–10.
7. https://www.senate.gov/civics/constitution_item/constitution.htm
8. https://www.senato.it/documenti/repository/istituzione/costituzione_inglese.pdf
9. Ten Guidelines for Effective Decentralisation Conducive to Regional Development. Making decentralisation work: a handbook for policy-makers / © OECD 2019.
10. <https://www.domo.com/learn/article/gbtw-a-decentralized-future-a-case-for-consideration>
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. III. N – Tartibli / Mirzaev T. va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot instituti. Tashkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, p. 309.
12. Bogdanova N.A. Sistema nauki konstitutsionnogo prava. Moskva, Yurist, 2001, p. 167.
13. Kovachev D.A. Konstitutsionniy prinsip: yego ponyatie, realnost i fiktivnost // *Jurnal rossiyskogo g rava*. 1997, No. 9, p. 71–77
14. Hommes, Rudolf. 1996. "Conflicts and Dilemmas of Decentralization," in *World Bank, Annual World Bank Conference on Development Economics 1995*, Washington DC:World Bank, pp. 331–50.
15. Rees, C.J. and Hossain, F. (2010). Perspectives on decentralization and local governance in developing and transitional countries. *International Journal of Public Administration*, 33(12-13): 581–587.
16. Treaty on European Union, together with the complete text of the Treaty establishing the European Community [Electronic resource] // *Official J*. 1992. p. 224. URL: <http://www.lexnet.dk/law/download/treaties/Ect-1992.pdf> (date of access: 10.12.2021).
17. OECD (2019 forthcoming), Report on the Implementation of the Recommendation of the Council on Effective Public Investment across Levels of Government.
18. Leon C. de. Regions and Subsidiarity in the European Union: A Look at the Role of the Spanish and other Regional Parliaments in the Monitoring of Compliance with the Principle of Subsidiarity // *European Public Law*. 2012, No. 18. p. 305–322.
19. Ten Guidelines for Effective Decentralisation Conducive to Regional Development. Making decentralisation work: a handbook for policy-makers © oecd 2019. p.4.
20. De Sadeleer N. Principle of Subsidiarity and the EU Environmental Policy // *Journal for European Environmental & Planning Law*. 2012, No. 9.I, p. 69.